



## **МАQOM BILIMDONI MAXMUDJON TOJIBOYEV**

**Rabimkulov Shoxrux Azizkulovich**

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy  
meros ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq hofizi, ustoz maqomchi Maxmudjon Tojiboyev xayoti va ijodiy faoliyati yoritilgan. Xususan, maqom san’atida ko‘plab shogirdlar yetishtirgan darg‘anining o‘ziga xos ustoz-shogird maktabi va maqom san’atini rivojlantirish hamda saqlash yo‘lida qilgan xizmatlari ilmiy talqin qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Maxmudjon Tojiboyev, maqom, san’at, ustoz-shogird, maktab, an’anaviy honandalik.

## **МАСТЕРА МАКАМНОГО ИСКУССТВА МАХМУДЖОНА ТАДЖИБОЕВА**

**Рабимкулов Шохрух Азизкулович**

Начальник отдела Научно-исследовательского  
института культурологии и нематериального  
культурного наследия

**Аннотация:** В данной статье освещены жизнь и творческая деятельность узбекского народного исполнителя и мастера макамного искусства Махмуджона Таджибоева. В частности, рассмотрены уникальные особенности его школы учеников, а также его вклад в развитие и сохранение макамного искусства, который представлен с научной точки зрения.

**Ключевые слова:** Махмуджон Таджибоев, макам, искусство, учитель-ученик, школа, традиционное пение.

## **MASTER OF MAQAM ART, MAHMUDJON TADJIBOEV**

**Rabimkulov Shokhruxh Azizkulovich**

Head of the Department of the  
Scientific-Research Institute of Culturology  
and Intangible Cultural Heritage



**Abstract:** This article highlights the life and artistic activity of the Uzbek maqam performer and master of maqam art, Mahmudjon Tadjiboev. In particular, it examines the unique aspects of his school of students and his contributions to the development and preservation of maqam art, presented from a scholarly perspective.

**Keywords:** Mahmudjon Tadjiboev, maqam, art, teacher-student, school, traditional singing.

Farg‘ona vodiysi azaldan hassos shoirlar, san’atkorlar, hunarmandlar va ajoyib sozanda-yu hofizlari bilan dong taratgan. Yaqin o’tmishda o’tgan ustoz san’atkorlarning nomlarini sanab o’tishlikka menimcha bu yerda hojat yo‘q. Chunki, ustozlar Hamroqul Qoridan tortib Jo‘raxon Sultonovgacha yoki Ma’murjon Uzoqovdan Fattohxon Mamadaliyevgacha deyarli hamma san’at shinavandalari san’atga bee’tibor bo‘lmagan insonlar bu san’atkorlarni juda yaxshi biladilar Farg‘ona vodiysi betakror hofizlar, ajoyib sozandalar yurti ekanligini. Bu sohada qadimdan Farg‘ona vodiyisida Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan shaharlari iqtisodiy-ijtimoiy markazlar bo‘lib shakllanganligi barchaga ayondir. Qolaversa bu vodiy o‘lkalarida qadimdan ashulachilik, sozandalik san’atlari rivojlangan joylar hisoblanadi. Katta ashula maktablariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Qo‘qon, Beshariq, Marg‘ilon-Yozyovon, Andijon, Baliqchi maktablari yaqqol dalil bo‘la oladi. Shu jumladan Andijon bilan Marg‘ilon o’rtasida joylashgan Quva-Asaka muzofotlari ham ko‘p san’atkorlar yetishtirib berganligi bilan va ko‘p san’atkorlar yetishib chiqqanligi bilan tanilgan yurtlardir. Misol uchun Quva muzofotini oladigan bo‘lsak qadimdan bu yerda Davronboy hofiz usta Juma kabi taniqli san’atkorlar, Farg‘ona muzofotida tanilgan san’atkorlar bo‘lishgan, bir gap bilan aytganda keyingi yuz yillikda, ya’ni 20 asr davomida vodiy-viloyatlaridan Respublikamiz miqyosida ko‘plab taniqli san’atkorlar yetishib chiqqan. O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov yoki ulardan avvalroq nash‘u-namo topgan ustozlardan O‘zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov, keyinchalik yoshlardan marhum O‘zbekiston xalq hofizi Maxmudjon Tojiboyev shular kabidir.

Biz bugun qalamga olmoqchi bo‘lgan hofiz, Quva muzofotini «Bolalik qayrag‘och» deb nomlangan qishlog‘idan yetishib chiqqan, xalqimizga tanilib bir qancha yillar davomida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblida faoliyat olib borgan hamda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida yoshlarga ta’lim berib kelgan konservatoriya professori, O‘zbekiston xalq hofizi, Fidokorona xizmatlari uchun orden sohibi, betakror xonanda va ustoz san’atkor Maxmudjon Tojiboyev haqida so‘z yuritiladi.

Maxmudjon Tojiboyevning san’atga kirib kelishi bobosidan o’tgan ekan. Ya’ni, hofizning bobosi Davronboy Karimov xalq o’rtasida Davronboy hofiz nomi bilan

Quva va Farg‘onada elga tanilgan. Bu inson Tavakkal Qodirovning ham ustozlari bo‘lgan. Ko‘pdan-ko‘p shogirdlar tayyorlagan. Garchi o‘zlari boshqa kasb, dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsada, hofizlik u kishiga ota meros bo‘lib qolgan. Chunki u kishini dadalarini Karim qori deyishgan. Qorini ko‘zlari ojiz bo‘lib, xalq orasidagi ba’zi bir yoshi ulug‘ keksalarni eslashicha, u kishi dutor chalib dostonlarni ham ijro etganlar. Davronboy hofiz esa o‘z navbatida tanbur jo‘rligida Farg‘ona-Toshkent maqomlari Bayotlar, Dugohlar, Chorgohlar, Shaxnozu Gulyorlar va ko‘pdan-ko‘p Farg‘ona vodiysidagi mumtoz ashulalarni aytib xalq yig‘inlarida, sayllarda shuhrat qozonganliklari e’tirof etilgan. Hozir davlat Sharqshunoslik institutida folklor ekspeditsiyasi tomonidan yozilgan Davronboy Karimov ijrosidagi “Giryva va Beksulton” ashulalari saqlanmoqda<sup>1</sup>.

Bundan tashqari u kishining aytishlaricha mahallarda yetuk hofiz va sozandalar istiqomat qilishgan. Maxmudjon Tojiboyevga dastlabki ta’limni davrining taniqli hofizi Egamberdi Mamatov bergan. Egamberdi Mamatov Maxmudjonni bobolari Davronboy Karimovni shogirdlari bo‘lgan. Bu kishi dutor, skripka jo‘rligida ba’zi maqomlarni ham Farg‘ona-Toshkent usulida Shashmaqomdan, Farg‘ona vodiysida mumtoz darajaga aylanib ulgurgan san’at namunalarini juda katta mahorat bilan ijro eta oladigan bir san’atkor bo‘lganlar. Afsuski u kishidan bir magnit yozuvlari yoki boshqa bir esdalik saqlanib qolmagan. Ammo bir-ikki o‘rinda u kishini mahalliy yig‘inlarda va to‘ylarda, aytgan ashulalarni tinglab, ko‘p katta san’at darg‘alari yuksak baho bergenliklari ma’lum. Maxmudjon Tojiboyev birinchidan u kishini ashulalarni yoshligida, hali murg‘ak bolalik paytida eshitib yurib, san’atga oshifta bo‘lgan. Ikkinci tarafdan, har bir insonga albatta Yaratgan tarafdan iste’dod ato qiladi. Tabiatan berilgan iqtidor bo‘lmasa, biror natijaga erisha olish mushkil masaladir. O‘ylaymizki, Mahmudjon Tojiboyev ham tabiatan iqtidor egasi, tafakkur omillaridan bahramand bo‘lgan mulohazali inson bo‘lganlar. Shu bois maqomlarni idroklash, siru-asrorlarini bilishga intilish salohiyatini ato etilganligi bois xayotda o‘z yo‘li yo‘nalishini topgan va ma’lum maqomga ega bo‘lishga erishgan.

Mahmudjon Tojiboyevni xotirlashicha, yoshliklarida radioda Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov yohud Orifxon Xotamovlarni eshitganlarida ularning sirli xonishlariga mahliyo bo‘lib qolar ekan. Keyinchalik o‘rta maktabni tugatib, Toshkent madaniy oqartuv texnikumiga o‘qishga kirib, u yerda musiqa tarixi va nazariyasi ilmidan saboq olib, milliy sozlardan rubob mutaxassisligi bo‘yicha ma’lumot olgan. Bu dargohda ustoz Bahodir Ziyomuhammedov sinfida ta’lim olgan. Ittifoqo bir uchrashuvda san’atshunoslik fanlari doktor professor Fayzulla Karamatov Maxmudjonga nazar

<sup>1</sup> Maxmudjon Tojiboyev bilan o‘zaro suhbatdan (15-may 2015 y.)

qilib, uni tinglab konservatoriya o‘qishga taklif qiladi. O‘sha paytlarda musiqa bilim yurtini tugallagan talabagina Konservatoriya imtihon topshiri mumkin edi. Lekin, Fayzulla Muzaffarovichning tavsiyasi bilan madaniy-oqartuv texnikumini tugallagan Maxmudjon Tojiboyevning hujjatlari Konservatoriya qabul qilinadi.

Kirish imtihonlarini a’lo baholarga topshirib talabalik safiga qabul qilinadi. Bilim dargohida yosh Maxmudjon marhum ustozlar Orif ota Alimaxsumov, Fattaxon Mamadaliyev, tanburdan Turg‘un Almatovdan saboq oladilar. Shular qatorida Maxmudjon Muhammedov Shavkat Mirzayev, Homidjon Jalolov kabi ustozlar u paytda an’anaviy ijrochilik kafedrasida faoliyat olib borardilar, Maxmudjon ushbu ustozlarning ilmidan, amaliy mashg‘ulotlaridan bahramand bo‘ladi. Ana shunday ustozlarni qo‘llarida tarbiya olib keyinchalik Konservatoriyanı 4 kursida tahsil olayotgan Maxmudjon Tojiboyevni ustozni Orif ota Alimaxsumov, maqomchilar ansambliga vaqtinchalik ishga taklif qiladi. Maxmudjonning otaxon ansambl, davrining eng sara ustozlaridan iborat maqom ansambliga kirib kelishi ana shunday boshlanadi.

Maxmudjon maqom ijrochilik sirlarini davrining darg‘alari safida turib o‘zlashtira boshlaydi. Konservatoriyanagi o‘qishni tugatgandan so‘ng ham, o‘zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomli maqomchilar ansamblida faoliyatini davom ettiradi. Ushbu dargoh Maxmudjon uchun maqom san’atini ijrochiligidini, ilmini o‘rganish uchun ulkan laboratoriya vazifasini o‘taydi.

Aqli teran, tafakkuri o‘tkir, ilmga chanqoq Maxmudjon maqom ilmini har tomonlama o‘zlashtirishga harakat qiladi. Davrining eng ilg‘or hofizlik ijro maktablarini asosiy unsurlarini idroklashga va ularni ilmiy jihatdan o‘z ijrochilik amaliyotiga singdirishga harakat qiladi. Maqom ustozlari bilan yonma-yon qariyb 17 yil ushbu dargohda ijodiy va amaliy faoliyat olib boradi. Jamoa bilan birgalikda 100 dan ortiq maqom namunalari, bastakorlar asarlari va xalq ashula yo‘llari namunalarini radioning oltin fondiga yozishda faol qatnashadi.

2000 yildan bosholab O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida ustozlik faoliyatini boshlaydi. Darhaqiqat, Maxmudjon Tojiboyevning Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansamblı jamoasida ishlagan davrini alohida ijodiy darr deb qabul qilish lozim. Chunki Maxmudjon Tojiboyevni san’atkor sifatida, hofiz va mohir sozanda sifatida shakllangan darr asosan maqom ansamblidagi faoliyati bilan bog‘liq. Bu yerda u Orif Alimaxsumov, Ochilxon Otaxonov, Eson Lutfullayev, Orifxon Hotamov, Berta Davidova, Komuna Ismoilova, Hadiya Yusupova kabi qator taniqli maqom darg‘alari bo‘lgan ustozlar bilan ishlash sharafiga muyassar bo‘ldi va mana shu ansamblida ijrochilik kamolotiga erishdi. Ansambl tarkibida nash’unamo topgan ustozlardan O‘zbekiston xalq artisti, “El-yurt hurmati ordeni” sohibi Abduhoshim Ismoilovni maqomchilar ansambliga rahbar bo‘lgani

ham Maxmudjon Tojiboyev ijodida alohida ahamiyat kasb etdi. Sababi maqomga yangicha bir qarash, yangicha bir nuqtai-nazar bilan ish boshlagan ustozning qo‘lida ta’lim olib, maqomni birinchi gramplastinkaga yangi talqinda yozib olishda Maxmudjon ishtirok etdi.

O‘sha paytlarda maqom ansambliga qabul qilingan Mahmudjon Yo‘ldoshev bilan, ya’ni ikkita Maxmudjonlar ansamblni yaxshi bir hofizlariga aylanib ulgurishdi. Abduhoshim Ismoilov juda ko‘p holatlarda ishchonchli partiyalarni eng muhim ijro o‘rinlarini o‘rta pardalardagi partiyalarni ishonib topshirardi va o‘zi bosh bo‘lib o‘rgatardi. Ustozni ushbu harakatlari o‘z natijasini ko‘rsatdi. O‘sha davrda “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” maqomlarini deyarli to‘liqligicha radioning oltin fondiga qaytadan yangicha talqinda yozildi va birinchi gramplastinkalar xalqaro tanlovlardida e’tirof etildi.

1998-2000 yillar mobaynida Konservatoriyada O‘zbekiston xalq hofizi professor Fattohxon Mamadaliyev an’anaviy ijrochilikda talabalarga ta’lim berib kelayotgandi. O‘sha paytlarda Fattohxon Mamadaliyevni sog‘ligi yomonlashib qoldi. Fattohxon Mamadaliyevni hayotining oxirgi kunlarida Mahmudjon Tojiboyev tez-tez borib holidan xabar olib turdi. Kunlarning birida ustoz Mahmudjonga Konservatoriyaga borib uning ishini davom ettirish kerakligini iltimos qiladi va Mahmudjon Tojiboyev uni to‘g‘ri qabul qilib, o‘sha kundan e’tiboran Fattohxon Mamadaliyevning talabalari bilan baholi-qudrat ishlab ustoz ko‘rsatmalarini amalga oshirishga kirishadi. Endi radiordan bevosita Konservatoriyaga ko‘chib o‘tish masalasida u ustozi Ochilxon Otaxonov bilan maslahatlashganda, Ochilxon Otaxonov ham bu taklifni qo‘llab quvvatlaydi. 2000 yildan boshlab Mahmudjon Tojiboyev maqomchilar ansamblidagi faoliyatini tugatib, Konservatorianing an’anaviy xonandalik kafedrasida asosiy ishda o‘z faoliyatini boshlaydi.

Maxmudjon Tojiboyevni maqomchilik san’atidagi faoliyatida ustoz san’atkor Ochilxon Otaxonovning har tomonlama ta’siri va o‘rnii katta. Sababki, Ochilxon Otaxonov o‘zbek maqomchiligi ijrochiligida o‘ziga xos bir ajoyib iz qoldirgan va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan san’atkor. Qolaversa, ustozning ijro maktabi, madaniyati, ilmi, talqin falsafasi Maxmudjonni o‘ziga rom etgan edi. Va eng muhimi Maxmudjon bu inson bilan umrining oxirigacha ijodiy, amaliy, ustoz-shogirdlik va insoniylik munosabatlarida birgalikda faoliyat olib bordilar.

Maxmudjon ustoz bilan qariyb 16 yil xalq xizmatida, izdihomlarda birga yurishga sazovor bo‘ldi. Shu o‘rinda yana bir narsani ta’kidlash lozimki, san’atkorning faqat ijrochilik mahoratinigina egallaganligi bilan san’atkor yuqori darajalarga erishishi mumkin emas. Bu o‘rinda san’atkorni ma’naviy olami, uni ichki dunyosi, uning ruhiy kechinmalarini ham juda muhim.

Maxmudjon Tojiboyev o‘z so‘zlarida ko‘pincha shu narsani ta’kidlab o‘tganki, ustozlari Ochilxon Otaxonovdan nafaqat ashula aytishni balki, ko‘proq san’atkor uchun zarur bo‘lgan axloq-odob arkonlarini, xalq jamoat o‘rtasida san’atkor o‘zni qanday tutishi lozimligini ko‘plab ta’kidlab o‘tgan. Ochilxon Otaxonov bilan birga yurib Maxmudjon Tojiboyev juda ko‘p san’at axloqi, odobi, ma’naviy-axloqiy qiyofa xususida juda ko‘p ilmlarni o‘rganganligini ta’kidlab keladi. Shu narsani aytib o‘tish kerakki, ayniqsa ustoz-shogirdlikda, shogirdni tarbiyalashda uning ma’naviyatini o‘stirish, uni ruhan va ma’nан kamolga yetkizib borishda ustozni tutgan o‘rni to‘g‘risida ko‘p ta’kidlab aytib o‘tish lozim. Chunki, zamon talabi shuni taqozo qiladi.

Maxmudjon Tojiboyev Konservatoriya an’anaviy ijrochilik kafedrasiga ishga kelgan vaqtida, Rifatulla Qosimov kafedrani juda mahorat bilan boshqarib turgan bir payt edi. Rifatulla Qosimovni o‘zi ham milliy ijrochiligidizda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va an’anaviy ijrochilik pedagogikasi asoslarini to‘liq egallab ulgurgan haqiqiy ustozlardan biri edi. Hozir ham buni soha mutaxassislari so‘zlar bilan tan olishadi. Professor Rifatulla Qosimovning yutuqlaridan biri u Konservatoriya, malakali, iste’dodli mutaxassislarni jalb qilib, kafedrada o‘ziga xos bir ma’naviy muhit yaratishga sababchi bo‘lgan. Chunonchi, O‘zbekiston xalq artisti “Buyuk xizmatlari uchun ordeni” sohibi Turg‘un ota Alimatov, O‘zbekiston xalq hofizi Quvondik Iskandarov, professor Matnazar Xudoynazarov, O‘zbekiston xalq artistlari Zamira Suyunova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Komila Bo‘riyeva va qator shunga o‘xshash el-yurt o‘rtasida o‘z obro‘ va e’tiboriga ega bo‘lgan san’atkorlarni pedagogik sohaga jalb qilib, ularning tajribalaridan unumli foydalangan.

Ko‘p yillar samarali mehnat qilib, yuzlab shogirdlar tarbiyalashga erishgan M.Tojiboyev 2017 yildan boshlab konservatoriyanagi faoliyati bilan birgalikda yangi tashkil etilgan O‘zbek milliy maqom san’ati markazi “Ustoz-shogird maktabi” bo‘limi rahbari lavozimida ham faoliyat ko‘rsatib, ushbu sohani qayta shakllanishida va respublikamiz miqyosida kamol topishida, xususan barcha hududlarda namunali maqom ansamblari tuzilishida, ilmiy ishlanmalar tuzishda, eng muhim yangi avlodni maqom san’ati madaniyatida kamol topishida o‘zining ulkan hissasini qo‘sishiga tuyassar bo‘ldi. Yosh avlod tarbiyasi uchun “Maqom alifbosi” darsligi yaratdi. Faqatgina “Maqom saboqlari” elektron ma’ruzalarning o‘zi, ya’ni 60 dan ortiq mahorat darslari bilan keljak avlod uchun munosib meros qoldirdi.

Maxmudjon Tojiboyev intellektual salohiyati baland, dunyoviy va diniy ilmlarni bilimdoni, falsafiy fikrlaydigan davrimizning donishmandi edi. Bular uning ma’ruzalarida, ayniqsa sozandalik va xonandalik ijrolarida o‘zini namoyon etganligi ayni haqiqatdir. Maxmudjon Tojiboyevning ijodiy merosini cheksiz. Uni o‘rganish

va yosh avlodlarga dasturi amal sifatida qoldirish zamonamizning ta’lim jarayoni uchun dolzarbdir. Maqom ijrochiligi sirlarini o‘zlashtirish albatta ilmiy jihatlar bilan uyg‘un holda mukammallikka erishiladi. Buning uchun Maxmudjon Tojiboyevning ilmiy va amaliy merosi ayni muddaodir.

Elimizning zabardas san’atkori, maqomdon olim, professor Maxmudjon Tojiboyev 2020 yilning 11 iyulida bu foniy dunyoni tark etdi. Lekin, Hofiz qolgan ilmiy va amaliy meros ko‘p yillar maqom san’ati rivojiga, maqom ilmini o‘rganishda, tadqiqotchilar va o‘quvchi talabalar uchun uzoq yillar xizmat qilishi shubhasizdir.



Maxmudjon Tojiboyev

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusov R. Fahriddin Sodiqov. T., 2005, 34-bet.
2. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik. T., 2007, 1-bet.
3. Muallifning 2015-yil 15-mayda M.Tojiboyev bian bo‘lgan suhbatidan.
4. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. T., 1995, 90-bet.
5. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. 119-bet.